



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**SURXONDARYO VILOYATI MUZRABOT TUMANI HOKIMINING**  
**Q A R O R I**

Muzrabot tumani, Onadiyor ko‘chasi 1-uy. 191300, tel.: (+99876) 349-17-26, muzrabod.t@exat.uz

---

2021 года «29» декабря

332-8-115-Q/21

Хокимият Музрабадского района

**Tumandagi yer egalari, yerdan foydalanuvchilarning yer turlari va ularning taqsimlanishi bo‘yicha 2022 yil 1 yanvar holatiga bo‘lgan yer hisobotini tasdiqlash to‘g‘risida.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 sentyabrdagi “Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6061-sonli farmoniga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr ajenligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4819-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 22 iyundagi “Davlat kadastrlarini yuritish sohasini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 389-sonli qarorlariiga hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan Davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyat Muzrabot tuman filialining taqdim etgan tumanda yer egalari, yerdan foydalanuvchilarning yer turlari va ularning taqsimlanishi bo‘yicha 2022 yil 1 yanvar holatiga bo‘lgan hisobotini ko‘rib chiqib,

**QAROR QILAMAN:**

1. Tumandagi yer egalari, yerdan foydalanuvchilarning yer turlari va ularning toifalari bo‘yicha bo‘linishi to‘g‘risidagi 22,22a-shakllariga asosan tuzilgan 2022 yil 1 yanvar holatiga bo‘lgan tuman bo‘yicha yig‘ma hisoboti 1 va 2-

ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

2.Davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyat Muzrabot tuman filiali (Sh.Murodov) ga mavjud yerlardan to‘g‘ri va maqsadli foydalanishi ustidan nazoratni kuchaytirish hamda sug‘oriladigan yerlarning noqishloq xo‘jalik qurilishiga ajratilishiga yo‘l qo‘ymaslik vazifasi yuklatilsin.

3.Mazkur qaror bir kun muddatda tuman hokimligining rasmiy veb-saytida (muzrabot.uz) e‘lon qilinsin.

4.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining Qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari I.Rajabov zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi**



**E. J. Alimov**

Музработ туман ҳокимининг  
2021 йил 29 декабрдаги  
332-8-115-Q/21-сон қарорига  
1-илова

## Mavjud yer fondining toifalari bo'yicha taqsimlanishi haqidagi

### H I S O B O T I

(gektarda)

№	Yer fondi toifalari	Umumiy yer maydoni	shundan: suvli maydoni
1.	Shirkat xo'jaliklariga qarashli yerlar		
2.	Qishloq xo'jalik muassasalari (massivlar)larga qarashli yerlar	46350	32030
3.	Tashkilotlar va korxonalariga qarashli yerlar	9425	6501
4.	Qishloq xo'jalik ilmiy-tekshiruv muassasalari va o'quv yurtlari		
5.	Yordamchi qishloq xo'jalik korxonalari	75	35
	<b>Jami qishloq xo'jalik korxonasi va tashkilotlarining foylanadigan yerlari</b>	<b>55850</b>	<b>38566</b>
	Jumladan: ijaradagi fermer xo'jaliklar	24592	21970
6.	Shahar va shahar turidagi qishloqlar yerlari	1023	6
7.	Sanoat transport, mudofaa, aloqa va boshqa maqsadlar uchun foydalanish yerlar	6952	
8.	Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish rekreatsiy maqsadlariga mo'ljallangan yerlar		
9.	Tarixiy-madaniy ahamiyatlarga molik yerlar	36	
10.	O'rmon fondi yerlari	289	230
11.	Gidrotexnik va boshqa suv xo'jalik inshootlari hamda kanal bo'yidagi yerlari	1561	
12.	Zaxira yerlar	8212	
	<b>Jami yerlar</b>	<b>73923</b>	<b>38802</b>

Музработ туман ҳокимининг  
2021 йил 29 декабрдаги  
332-8-115-Q/21-сон қарорига  
2-илова

### Qishloq xo'jalik yer turlarining taqsimlanishi

(gektarda)

No	Yer turlari	Jami maydoni	shundan: suvli maydoni
1.	Ekin yerlar	33316	33316
	Shundan holati yomon yerlar	1197	1197
2.	Ko'pyillik daraxtzorlar	872	872
	Shundan: Bog'lar	403	403
	Uzumzorlar	187	187
	Tutzorlar	272	272
	Mevali ko'chatzorlar va boshqa ko'pyillik daraxtzorlar	10	10
3.	Bo'z yerlar		
4.	Yaylovlar	1969	
	<b>Qishloq xo'jalik yer turlari jami</b>	<b>36157</b>	<b>34188</b>
5.	Fuqarolar tomorqa yerlari	5506	4274
6.	Meliorativ qurilish holatidagi yerlar	18	
7.	Jami o'rmonzorlar	340	340
	Shundan: ixotazorlar	296	296
	Terakzorlar	40	40
8.	Jami foydalanilmaydigan yerlar	31902	
	<b>Tuman bo'yicha jami</b>	<b>73923</b>	<b>38802</b>